| <b>Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li</b>                                                                                                                |     |
| Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish .....                                                          | 352 |
| <b>Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi</b>                                                                                      |     |
| Mijozlar tajribasini yaxshilashda raqamli integratsiya strategiyalari: "O'zbektelekom" AK tajribasi.....                                                    | 358 |
| <b>Islamov Javlon Rasulovich</b>                                                                                                                            |     |
| Tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari.....                                         | 361 |
| <b>Rustamov Sunnatillo Rustamovich</b>                                                                                                                      |     |
| Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish omili sifatida: Yevropa tajribasi.....                                                                              | 368 |
| <b>Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich</b>                                                                                                                 |     |
| Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda kichik biznes va mahalla hamkorligi modellarini takomillashtirish .....                                         | 373 |
| <b>Murotov Nodir Xujamqulovich</b>                                                                                                                          |     |
| Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil.....                                    | 378 |
| <b>Alimov Azizbek Alievich</b>                                                                                                                              |     |
| Bankrotlik xavfini tahlil qilish modellari.....                                                                                                             | 386 |
| <b>Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich</b>                                                                                                                 |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni oshirishni takomillashtirish yo'llari.....                                        | 393 |
| <b>Burxonova Nargiza Mirshohid qizi</b>                                                                                                   |     |
| Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida bank tizimi islohotlari va ularni boshqarish strategiyalari.....                              | 400 |
| <b>Hamroyev Xurshid Jalilovich</b>                                                                                                        |     |
| “Temir yo'l transportida MHXSni joriy etishning ahamiyati va milliy standartlar bilan taqqoslama tahlili” .....                           | 405 |
| <b>Babaxalov Norbo'ta Eshnazarovich</b>                                                                                                   |     |
| Banking and financial services in the process of economic development digitalization and its advantages and security of the process ..... | 409 |
| <b>Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, Baxanurov Oqil Odil og'li</b>                                                                        |     |
| Kichik biznesda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....                            | 416 |
| <b>Abduvosit Omonboyev</b>                                                                                                                |     |
| “Futurologiya va mintaqaviy iqtisodiy transformatsiya: Markaziy Osiyoda O'zbekistonning strategik senariylari” .....                      | 421 |
| <b>Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich</b>                                                                                                  |     |
| Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.....                  | 425 |
| <b>Irgasheva Nigora Akbarovna</b>                                                                                                         |     |
| Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан .....              | 434 |
| <b>Додиев Феруз, Голышева Елена Вячеславовна</b>                                                                                          |     |
| Turistik erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish: Imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....                | 443 |
| <b>Xoliqov Dostonbek Rustam o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklik: moliyalashtirish modelini modernizatsiya qilish yo'nalishlari.....                                | 449 |
| <b>Bozorov Alisher O'zimurotovich</b>                                                                                                     |     |
| Xalqaro raqamli intergatsiya, raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyati tahlili .....                                         | 455 |
| <b>Turapov Bahromjon Alisher o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili.....                                                 | 461 |
| <b>Mamatkulova Nodira Maxkamovna</b>                                                                                                      |     |





# TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR – IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI



**Mamatkulova Nodira Maxkamovna**

TAQU, "Menejment" kafedrası dotsenti  
Mamatkulova.n@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Dunyo mintaqalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, modernizatsiya, asosiy kapital, qo'shma korxonalar.

**Abstract:** This article examines the content and specifics of foreign direct investment. The importance of foreign direct investment in economic development is revealed. The flow of foreign direct investment by regions of the world is analyzed. Based on the results of the study, proposals and recommendations aimed at enhancing the attraction of foreign direct investment into the national economy have been formulated.

**Key words:** investments, foreign investments, foreign direct investment, International Monetary Fund, World Bank, modernization, fixed capital, joint ventures.

**Аннотация:** В данной статье исследуется содержание и специфика прямых иностранных инвестиций. Раскрывается важность прямых иностранных инвестиций в развитии экономики. Проанализирован поток прямых иностранных инвестиций по регионам мира. По результатам исследования сформулированы предложения и рекомендации, направленные на активизацию привлечения прямых иностранных инвестиций в национальную экономику.

**Ключевые слова:** инвестиции, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, Международный валютный фонд, Всемирный банк, модернизация, основной капитал, совместные предприятия.

## KIRISH

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish investitsiya muhiti jozibadorligini yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasining (UNCTAD) yangi ma'ruzasida qayd etilishicha, «2022-yilda xalqaro biznes va xalqaro investitsiyalar uchun global muhit keskin o'zgardi. Ukrainadagi urush – COVID-19 pandemiyasining davom etayotgan ta'sirini yanada kuchaytirib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida oziq-ovqat, yoqilg'i va moliyaviy inqirozni keltirib chiqarmoqda. Natijada, investitsiyaviy muhitning noaniqligi 2022-yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda» [1]. Jahon miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi «2022-yilda 12 foizga kamayib 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Kamayish, asosan, rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy oqimlar va operatsiyalarning pasayishi bilan bog'liqdir» [2]. Bunday tendentsiya xalqaro investitsiyalar uchun raqobatlashish borasida mamlakatda biznes muhitining



yanada yaxshilanishini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini faollashtirish zarurligini taqozo etadi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyatiga va uning o'ziga xususiyatlariga aniqlik kiritish va bu borada mustahkam pozitsiyaga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tushunchasi hozirda yangi talablar bo'yicha xalqaro darajada «Xalqaro valyuta jamg'armasining 2009-yildagi «To'lov Balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasi bo'yicha qo'llanma»sining 6-nashrida va 2008-yildagi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyaga namunaviy ta'rif»ining 4-nashrida qabul qilingan mezonlarga asoslanadi» [3]. Bu ikki manbada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar zaxiralari va oqimlarini hisobga olish bo'yicha batafsil xalqaro standartlar o'z ifodasini topgan. XVJning ta'rifini ko'pchilik mamlakatlar o'zlari uchun etalon sifatida qabul qilgan bo'lib, BMTning Savdo va rivojlanish bo'yicha kengashi (YuNKTAD) ham o'zining har yili chop etadigan «Jahon investitsiya hisoboti to'plami»da (World investment report) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ma'lumotlarini chiqarishda aynan XVJ mezonlariga tayanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan quyidagicha tavsiflangan: «bir mamlakatning rezidenti boshqa mamlakat rezidenti bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektiga nisbatan uzoq muddatli manfaatni aks ettiradigan xalqaro investitsiya kategoriyasi» [4] dir. To'lov balansi uslubi yig'irish asosan ustav kapitali, qayta investitsiyalangan (reinvestitsiya) daromadlar va transmilliy korporatsiyaning (turli mamlakatlardagi) bo'limlari o'rtasidagi qarz majburiyatlari bilan bog'liq amaliyotlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibiga kiritiladi va tegishli ravishda to'lov balansining moliya hisobida aks ettirib boriladi. «XVJ hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya sifatida korxonaning ustav fondidagi xorijiy kapital ulushi kamida 10 foiz bo'lishi tavsiya etilgan» [5].

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida «to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari – chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari» [6], sifatida tavsiflangan.

Darhaqiqat, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalarini anglatadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarda bir iqtisodiyotdagi rezident tomonidan boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonaga investitsiya kiritilishi uning boshqaruvini nazorat qilish yoki unga salmoqli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, Jahon banki tomonidan O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish va bu yerda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini yaratish bo'yicha tavsiyalardan iborat hisobot taqdim etiladi. Hisobot manfaatdor davlat organlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha yangi strategiyani ishlab chiqish, shuningdek, ularni mamlakatda saqlab qolish, shuningdek, tarmoqlar va hududlar bo'yicha yanada kengroq taqsimlash bo'yicha kelgusi ishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

COVID-19 pandemiyasining ta'siri, iqlim o'zgarishi, Ukrainadagi urush va global ishlab chiqarish va savdo zanjirlaridagi o'zgarishlar transmilliy korporatsiyalarning xalqaro investitsiya strategiyalarida yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga ta'sir qildi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, Jahon bankining hisoboti O'zbekiston hukumatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar) jalb qilish bo'yicha strategik qarashlar va aniq maqsadlarni taklif etadi. Hisobotda investitsiyalarni rag'batlantirishning maqsadli dasturini ishlab chiqish bo'yicha maxsus metodologiyadan foydalangan holda investorlar uchun eng jozibador bo'lgan, shu bilan birga, O'zbekistonning rivoji uchun eng foydali sohalar, muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi sifatli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bularning qatoriga quyidagi sohalaridagi islohotlar kiradi: investitsiya qonunchiligini takomillashtirish; xorijiy investorlar uchun rag'batlarni (stimullarni) tartibga solish va modernizatsiya qilish; iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida investitsiya muhitini yaxshilash; investitsiya imkoniyatlarini rag'batlantirish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan jarayonlar va institutlarni kuchaytirish; davlat korxonalarini xususiy lashtirish jarayoni va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) imkoniyatlaridan qo'shimcha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida foydalanish.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraktsiya, taqqoslash, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni muhim bo'lib, aynan shunday investitsiyalar iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladi.



1-jadval. Dunyo mintaqalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi [7]

| Mintaqalar                  | 2021 yil                 |                    | 2022 yil                 |                    | 2023 yil                 |                    | 2024 yil                 |                    |
|-----------------------------|--------------------------|--------------------|--------------------------|--------------------|--------------------------|--------------------|--------------------------|--------------------|
|                             | Hajmi (mlrd. AQSh doll.) | O'sish sur'ati (%) | Hajmi (mlrd. AQSh doll.) | O'sish sur'ati (%) | Hajmi (mlrd. AQSh doll.) | O'sish sur'ati (%) | Hajmi (mlrd. AQSh doll.) | O'sish sur'ati (%) |
| Jahon bo'yicha              | 1478                     | 48                 | 1295                     | -12                | 1 300                    | 5                  | 1 157                    | -11                |
| Rivojlangan mamlakatlar     | 597                      | 91                 | 378                      | -37                | 378                      | 0                  | 295                      | -22                |
| Yevropa                     | 51                       | - 30               | -107                     | -                  | ~50                      | -                  | ~21                      | -58                |
| Shimoliy Amerika            | 453                      | 51                 | 338                      | -26                | 338                      | 0                  | 416                      | +23                |
| Rivojlanayotgan mamlakatlar | 881                      | 33                 | 916                      | 4                  | 867                      | -5                 | 862                      | -1                 |
| Afrika                      | 80                       | 20                 | 45                       | -44                | 53                       | +18                | 93                       | +75                |
| Osiyo                       | 662                      | 24                 | 662                      | 0                  | 621                      | -8                 | 603                      | -3                 |
| Lotin Amerikasi             | 138                      | 57                 | 208                      | 51                 | 193                      | -1                 | 170                      | -12                |

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ning global oqimlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishsiz qolib, taxminan 1,3 trln. AQSh dollarini tashkil etdi. Dunyo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra, 2023-yil yakunida rivojlangan mamlakatlarda TTXI hajmi 37 foizga qisqargan holda 378 mlrd. AQSh dollariga yetdi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 5 foizga pasayib, 867 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Mintaqalar kesimida 2023-yilda Yevropa davlatlarida PII oqimi keskin pasayib, deyarli 50 mlrd. AQSh dollariga tushdi, Shimoliy Amerikada esa o'zgarish kuzatilmadi (taxminan 338 mlrd. dollar). Afrikada 18 foizlik o'sish bilan 53 mlrd. dollar, Osiyoda 8 foizlik pasayish bilan 621 mlrd. dollar, Lotin Amerikasida esa 1 foizlik pasayish qayd etildi.

2024-yilda esa global PII oqimlari 11 foizga qisqarib, taxminan 1,16 trln. AQSh dollarini tashkil etdi. Rivojlangan mamlakatlarda pasayish 22 foizni, Yevropa davlatlarida esa 58 foizni tashkil etdi. Shimoliy Amerikada aksincha, 23 foizlik o'sish kuzatildi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pasayish 1 foiz bo'ldi. Mintaqalar bo'yicha, Afrikada katta hajmdagi yirik investitsiya loyihasi hisobiga 75 foizlik o'sish qayd etilgan bo'lsa, Osiyo mamlakatlarida 3 foizga pasayish, Lotin Amerikasida esa 12 foizlik qisqarish kuzatildi.

Global siyosiy inqiroz, Ukrainadagi urush, oziq-ovqat, energiya va qarz mablag'lari narxlarining o'sishi TTXI oqimi hajmi pasayishiga sabab bo'ldi. Jahon kapital bozoridagi noaniqlik, foiz stavkalarining oshishi halqaro loyihaviy moliyalashtirish va transchegaraviy birlashish sharoitlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Chet el kapitalining kirib kelishi xorijiy investor atrofida boshqa kompaniyalarning markazlashishi jarayonini shakllanishiga olib keladi, qaysiki bu klasterlarning tashkil topishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga hissa qo'shadi. «Klaster» atamasi inglizcha cluster (birlashma, to'da) so'zidan olingan bo'lib, ma'lum bir mezon bo'yicha turli elementlarning guruhlanishi, birlashishini bildiradi. Professor Maykl Porterning ta'riflashicha: «Klaster deganda – geografik jihatdan qo'shni o'zaro bog'langan kompaniyalar va ularga bog'liq tashkilotlar, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatuvchi guruhlardir» [8]. Klasterda xorijiy kapitalning mavjudligi odatda mahalliy kapitalni jalb qiladi, bu esa klasterning rivojlanishini tezlashtiradi, uning kengayishini rag'batlantiradi. Mahalliy va xorijiy klasterlarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi jarayonini tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarida klasterlar mavjudligining o'zi xorijiy investorlarni jalb qilishda va ularga ta'sir o'tkazishda, xususan, investitsiyalarni mahalliyashtirishda iqtisodiyotning muhim elementi hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (yuqori texnologiyalarni, boshqaruv ko'nikmalarini va h.k.) jalb qilish milliy firmalarning ishlab chiqarish usullariga muayyan o'zgarishlarni olib kiradi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish kerak, ularsiz yuqori texnologiyalarni uzatish ham bo'lmaydi. Texnologiyalarning o'zini sotib olish ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar hamda o'tish iqtisodiyoti davlatlari uchun qimmatga tushadi va ko'pincha buning iloji ham bo'lmaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mahalliy firmalarda mavjud yuqori texnologiyalar paketini oshirishi mumkin. Yangi texnologiyalarni mahalliy sharoitlarda moslashtirish ham



muhimdir. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar alohida korxonalarning faoliyati, ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonlar mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqobatchilarga bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali ichki bozorni rivojlantirish, ishchilarning malakasi va amaliy tajribasini oshirishda yordam beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Salohiyali xorijiy investorlar uchun mamlakatimizda barqaror qonunchilik asoslari ta'minlanishi zarur.
2. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga asoslangan, intensiv rivojlanishni ta'minlaydigan investitsion loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish kerak.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi past darajadagi hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni kengaytirish maqsadida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ustav fondi miqdorini kamaytirish zarur.
4. Maxsus iqtisodiy zonalarni barpo etish ishlarini jadallashtirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNCTAD. Otchyot o mirovyykh investitsiyax 2023 god. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>.
2. UNCTAD. Otchyot o mirovyykh investitsiyax 2023 god. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>.
3. Balance of payments and international investment position manual. 6th ed. –Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2009. 3 OECD Benchmark Definition of Foreign Direct Investment. 4th edition. – Paris, France: The Organisation for Economic Co-operation and Development, 2008.
4. International Monetary Fund. Balance of payments manual. Washington DC. 2003.
5. Benchmark Definition of Foreign Direct Investment, Fourth Edition – Paris, OECD Publications, 2008, p.48.
6. O'RQ-598-son 25.12.2019. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" (lex.uz).
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasining (UNCTAD) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
8. Porter, Maykl E. Konkurentsia: per. s angl. – M.: «Vil'yams», 2005. – 608 s.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---